

## Hisobot taqdimoti

2019 yil 4 yanvar kuni institutning 4-ma'ruzalar zalida "Gidromelioratsiya" fakultetida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkillashtirish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, iqtidorli talaba-yoshlar bilan ishlash, ilmiy-tadqiqot natijalarini o'quv va ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish yuzasidan 2018 yilda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha HISOBOTning taqdimoti bo'lib o'tdi.

Taqdimot qiziqarli mulohazalarga boy bo'ldi. Hisobot yig'ilishida fakultet professor-o'qituvchilarining deyarlik barchasi ishtirok etdi. Professorlar A.Arifjanov, B.Serikbayev, N.Egamberdiyevlar. dotsent A.Sherovlar so'zga chiqib, taqdimot yuzasidan qimmatli mulohazalarini bildirdilar. Ayniqsa, ustoz ilmiy ishlarning ko'rgazmasi ko'pchilikda iliq taassurot qoldirdi.



**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**